

Ψ



**EURASIAN JOURNAL OF
SOCIAL SCIENCES,
PHILOSOPHY AND CULTURE**

Volume 2 Issue 9 (2022): EJSSPC



**Innovative Academy
Research Support Center**

**EURASIAN JOURNAL OF
SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY
AND CULTURE**

**Volume 2, Issue 9
September 2022**

Journal has been listed in different indexings



OpenAIRE



**The official website of the journal:
www.in-academy.uz**

Tashkent 2022



«Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture» ilmiy-uslubiy jurnali:
№9. 2022 yil.

Ushbu to'plamda «Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture» ilmiy-uslubiy jurnali 2022 yil 9-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

«Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture» ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan №1204-sonli guvohnomaga ega.

Jurnal Gruziyaning **Universal Impact Factor**ida 8.2 ko'rsatkich bilan hamda Yevropaning **Scientific Journal Impact Factor**ida 6.051 ko'rsatkich bilan baholangan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Citefactor**, **Directory of Research Journals Indexing**, **Researchbib**, **Index Copernicus**, **IJIFACTOR indexing**, **Internet Archive**, **Base Search**, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.





**Tahririyat 1204-
sonliguvohnoma
asosida faoliyat
yuritadi.**



(Tekshirish uchun
skannerlang. Maxsus
kod: 5798)

- Berdimuratova Alima Karlibayevna**
Qoraqalpoq davlat universitetining «Ijtimoiy
fanlar» kafedrasi mudiri, f.f.d., professor
- Bushuy Tatyana Anatolyevna**
Samarqand davlat chet tillar institutining o'zbek
tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.
- Kaitov Shadmon Axmadowich**
Buxoro davlat universitetiniga "Tarix" kafedrasi
professori, tarix fanlari doktori
- Orexova Svetlana Yevgenyevna**
Ukraina, Mariupol davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
- Babataev Abd rashit Madanovich.**
Qirg'iziston, Manas nomidagi Qirg'iziston-Turk
universiteti, falsafa fanlari doktori
- Sagikyzy Ayazhan**
Qozog'iston. Al-Farobiy nomidagi Milliy
universiteti, falsafa fanlari doktori, professor
- Vildanov Ural Salimovich**
Rossiya, Boshqird davlat universiteti falsafa va
sotsiologiya fakulteti ijtimoiy ish kafedrasi
mudiri, falsafa fanlari doktori, professor
- Matsyna Andrey Ivanovich**
Rossiya, Chelyabinsk davlat universiteti, falsafa
fanlari nomzodi, dotsent
- Ochilova Nigora Ruzimuratovna**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti «Ijtimoiy
fanlar» kafedrasi dotsenti. PhD
- Raximov Farrux Movlidinovich**
Navoiy davlat konchilik instituti «Elektr
energetikasi» kafedrasi dotsenti. PhD
- Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna**
Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti,
«Yengil sanoat mashina va jihozlari» kafedrasi
mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
- Navruzova Gulchixra Nigmatovna**
Buxoro muxandislik-tehnologiya instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori, falsafa
fanlari doktori

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Shadmanov Qurbon

Buxoro davlat tibbiyot institutining «Ingliz tili» kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib

Bakayev Najmiddin

Buxoro davlat tibbiyot institutining «Ingliz tili» kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi.

Nashrga tayyorlovchi

Akbarova Dildora Axtamjon qizi – Tahrirlovchi

Turakulova Madina Nomazovna – Texnik muharrir

Quchqarov Azamat Murotjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna

Andijon davlat universiteti umumiyl psixologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Gulnoz Negmatovna Kurbanova

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'zbek tili va
adabiyoti kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent

Xamidov Zokir Shokirovich

Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
"Falsafa" kafedrasi dosenti

Zakirova Hafiza Razaqovna

Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.d.

Boymurodov Shuhrat Toshkentovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
«O'zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti. PhD

Manzarov Yusup Xurramovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
«O'zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti. tarix
fanlari nomzodi

Saydaliyeva Nasiba Farxodovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
akademik liseyi tillar kafedrasi mudiri, filologiya
fanlari nomzodi

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand davlat tibbiyot instituti Tillar
kafedrasi stajyor assistenti

Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik
kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.d.

Eshmurodova Gulbakhor Khushmurodovna

Qarshi davlat universiteti pedagogika kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Mirakhmedov Jakhongir Mukhsinovich

Qo'qon davlat pedagogika institutining "Milliy
g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi"
kafedrasi o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori




EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.2 | SJIF = 6.051

www.in-academy.uz



O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BERILAYOTGAN ASAR MUALLIFLARINI O'RGANISH VA O'QITISH

Zulfiyaxon To'ychiyeva Abdulkamid qizi

Farg'ona viloyati Qo'qon shahar 3-umumi o'rta ta'lif

maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7050536>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2022

Accepted: 03rd September 2022

Online: 05th September 2022

KEY WORDS

savodxonlik, matn, adib, ijodkor, nutq, u, men, sen, ular, biz, kim?, nima?, kimlar?, mashq, topshiriq, bilim, ko'nikma, malaka, til, xalq, asar, tahlil, izoh, ibora, ona tili, o'qish, o'qituvchi, o'quvchi

Bolalar adabiyoti o'zbek adabiyotining tarkibiy qismi sifatida o'tgan asrning so'nggi choragida shakllana boshlagan. Bir asrdan ortiq vaqt mobaynida u o'zining zukko kitobxonlari va iste'dodli ijodkorlariga ega bo'ldi. Shu ma'noda bolalar adabiyoti mustaqil fan, sohasi sifatida rivojlanib bormoqda. Bunda o'qish darslari juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u orqali yosh avlodning jajji qalbida yozuvchi, shoir va adiblarning ijodiga, ularning betakror asarlariga qiziqish, havas va ishtiyoq uyg'otib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish, shaxsiy namuna ko'rsatish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Darslikda berilgan shoirlar, olimlar, zamonamizning atoqli kishilarining asarlari bilan birga, ularning o'z hayotiy faoliyatini ham hamma uchun o'rnak bo'lardir. Zamonlar o'taveradi,

ABSTRACT

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida berilgan asar va asar mualliflarini o'qitish metodikalarini o'rganish ular ustida amaliy ishlar olib boorish. O'quvchilarini bolalar adabiyotiga qiziqtirish, bolalar ijodkorlarini yaqindan tanishtirib boorish.

lekin xalq qalbini zabit etgan donishmandlar, elim deb, yurtim deb jonini xalq va millat ravnaqi yo'lida fido qilgan insonlar mangu yashaydi. Ularning hayot va ijodlari barchaga namuna.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'limda o'zining alohida o'rniiga ega. O'qish darslarining asosida savodxonlik va axloqiy-ta'lif tarbiya turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar to'plamini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yozuvchi va shoirlarning yaratgan asarlarida va amaliy faoliyatida har doim ezgu g'oyalar ilgari surilgan, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Bularni yosh avlodga o'rgatish, ongu shuuriga singdirish, hozirgidek tinch va farovon hayot uchun qilingan zahmatli mehnatlarni unutmaslik, aksincha, ularning qadriga yetish va bundan faxrlanib yashash



hissini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim sharti sanaladi.

O'qish darslarini to'g'ri tashkil qilish juda muhim masala hisoblanadi. Chunki aynan shu darslarda o'quvchilar o'qish savodxonligini oshirib borishadi. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnnini topish maqsadiga erishish yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

Bu asarlarni o'rganish davomida uning mualliflari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishlari zarurdir. Boshlang'ich sinf o'qish darsligida asarlari berilgan mualliflarning hayoti va ijodini o'rganish va o'quvchilarga o'rgtish zarurdir.

1. Adabiy ta'limning asosiy maqsadi hamda vazifalarini belgilash.
2. O'qish darsliklarining shakl va mazmuniga ko'ra tasnif etish va tahlilga tortish.
3. O'qish darsligida asarlari kiritilgan mualliflar ro'yxatini tuzish.
4. Asarlarning mualliflari hayoti va ijodiga oid materiallarni to'plash.
5. Mualliflarning ijodini o'rganish.
6. Adiblar hayoti va ijodini o'qitishda innovatsion metodni ishlab chiqish.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bolalar adabiyotini rivojlantirish va o'rganish juda qiziqarli va murakkab jarayondir. Bu sohada qator muammolar mavjuddir. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish omillari haqida gap ketganda, o'z kasbining ustasi bo'lgan yetuk kadrlar bilan bir qatorda o'qituvchining ta'lim berishi, o'quvchining esa o'quv materialini tez va to'liq o'zlashtirishiga yordam beruvchi o'qitish vositasi – darsliklarga ham

yeterlicha ehtiyojimiz borligi hech kimga sir emas! Bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan va farzandlarimizning sifatli ta'lim olishlari uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladigan darsliklar yaratish muammosi shu sohada faoliyat yuritayotgan har bir fidoyi, jonkuyar o'qituvchilarimizning kunda yuz bor o'ziga beradigan, eng ko'p o'ylantiradigan savoli bo'lishi tabiiy. Chunki o'qish darsliklarimizga kiritilgan asarlarni mualliflari haqida deyarli ma'lumotlar berilmagan. Dars o'tish jarayonida esa asar muallifi haqida ma'lumot berish kerak.

Bolalar adiblari ijodini o'rganish bo'yicha DTS va o'qish kitoblarining o'zaro mos kelmaslik holatlari ko'zga tashlanadi. Bunda o'qituvchilar uchun dars o'tish jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, dars o'tish jarayonini chegaralangandek bo'lib qolmoqda.

3-sinf o'qish darslarida bolalar adiblari Zahro Hasanova va Dilshod Rajab ijodi va asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilar uchun zarur bo'lgan manbalarning yo'qligi, biroq ular asar mualliflari ijodi va asarlariiga juda qiziqishlari ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham yangi adabiyotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

O'qish darsligiga kiritilgan asarlarni tanlab olishda asosan asarning bo'limga mos tushishi ahamiyatlidir. Uning muallifi ahamiyatsiz bo'lib, asar muhim hisoblanadi. Bunday davom etsa kelajakda o'quvchilarimiz bolalar adiblarini bilmay, tanimay qoladilar.


O'qish darslarida didaktik o'yinlar orqali adiblar hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berib borilishi o'quvchilarning adabiyot olamiga, kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Qalbida adabiyotga



muhabbati bor avlodni buyuk kelajak kutadi.

References:

1. K. Qosimova], S.M atchonov, X. G'ulom ova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi — T.: «NOSHIR», - 2009. 314 b.
2. I.Azimova va voshqalar Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism. 1-sinf uchun darslik Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. -21 b
3. K. Mavlonova [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 120 b.
- 4.R. Ikromova [va boshq.]. 8- nashri. — Ona tili umumiy o'rta ta'lif maktablarining 4-sinfi uchun darslik / Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2017. — 192 b.
5. Umarova M. va boshq. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik) – T.: Sharq, 2019 – B.74.
- 6.Z.A.To'ychiyeva.Boshlang'ich sinf o'qish darsliklariga kiritilgan asarlar mualliflarinining hayoti va ijodini o'rgatish. Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi.Qo'qon-2021. 80-bet.
7. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'lifni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
8. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklori. – T.:Fan, 2006. – B.214., Bolalar adabiyoti. – T.:O'qituvchi, 2008 – B.367,
9. A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. – T.:O'qituvchi, 1995 – B.220.
- 10.R.Barakayev. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. . – T.: Fan, 2004 -. B.157.; Folklor – G'afur G'ulom – o'zbek bolalar she'riyati // O'zbek tili va adabiyoti, 2013, 3-son, B.23-29., Bugungi o'zbek bolalar she'riyatida badiiy tasvir // O'zbek tili va adabiyoti, 2017, 4-son, B.35-47.
- 11.N.Karimov. O'zbek bolalar adabiyoti: kecha, bugun va ertaga // Til va adabiyot ta'limi, 2017,2-son, B.17-21.



**1916-YILGI TURKISTON O'LKASIDAGI BOSHLANGAN
XALQ HARAKATLARIDAGI TELEGRAMMA
YOZISHLAMARINING BOSHLANISHI**

SHAXZODXO'JA ABDURAZZAQOV

Tarix yo'naliши 4-bosqich talabasi

shaxzodxojaabdurazzaqov@gmail.com

Namangan davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7063710>

ARTICLE INFO

Received: 04th September 2022

Accepted: 06th September 2022

Online: 09th September 2022

KEY WORDS

V.O. fon Klemm, N.A. Shulgi, A.K. Belyayevu, N.S. Likoshin, N.B. Rubax, Xankov, Petrograd, Pekin.

Tashqi ishlар vazirligining uchinchi siyosiy boshqarmasi maslahatchisi V.O. fon Klemmning Tashqi ishlар vazirligining Buxorodagi siyosiy agenti A.K. Belyayevuga telegrammasi. № 1242 Petrograd 1916 yil 12-mart Pekin telegrafidan xabar berishicha, nemislar jo'natgan bir necha kishini Sharqiy Turkistonda Rossiyaga qarshi joylashtirish maqsadida yuborgan. Bu shaxslar orasida nemis millatiga mansub bo'lgan, Buxoro Zamiriga mansub turkiy, qarindoshi bo'lgan Hamza ham bor. Hozir Hamza hibsga olinib, Xankovga olib kelindi va u yerda nemis konsuliga topshirildi. Yashirin tarzda o'tirishni afzal ko'ring va Sayid Hamza Buxoroda bormi va haqiqatan ham dunyo bilan aloqasi bormi. Klemm ARTIPH. 147. BMT 486. L 486. JL. 2 Tashqi ishlар vazirligining Buxorodagi siyosiy agenti A.K. Belyayevning Tashqi ishlар vazirligi uchinchi siyosiy boshqarmasi maslahatchisi V.O. fon Klemmga telegrammasi

ABSTRACT

Mazkur ishda 1916-yildagi va ungacha bo'lgan davrdagi Turkiston o'lkasidagi bo'layotgan voqealar hamda o'lkadagi siyosiy masalalar va mardikorlikka safarbarlik e'lon qilinganidan keyingi holatlar, mardikorlikka safarbarlikka oddiy xalqning mubosabati haqida davlat amaldorlarining bir-birlariga yuborgan hisobotlari haqida qisqacha ma'lumolar berib o'tilgan.

YangiBuxoro

1916

yil 18-mart O'ta mahfiy

1242-sonli telegramma qabul qilindi. Sayid Hamza Buxoroda umuman yo'q. A.K.Belyayev

AEPRI f. 147. Op. 486. d. 486. L. 3.

Samarqand viloyati harbiy xizmatni o'tash bo'yicha maxsus okrug bo'limining buyrug'i bilan N.B.Rubaxning Xo'jand shahar sud ijrochisiga

29-iyun-1-iyul 1916-yi

Harbiy sabablarga ko'ra

Men brigadir larga ishchilar tarkibiga ishga olishdan qochish uchun kelgan barcha begonalarni zudlik bilan o'z tumanlaridan chiqarib yuborishni va o'zlariga maxsus guvohnomalarsiz chiqib ketishlariga yo'l qo'ymaslikni buyuraman .

Buning bajarilishini doimo kuzatib boring.

Nusxadan olingan nusxa to'g'ri:

Xo'jand shtab boshlig'i-kapitan ShGA RT. F.6 Op. 2. d. 16. l. 53. Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.S.Likoshinining Turkiston o'lkasi general-gubernatorligiga



telegrammasi № 1355 Samarqand 1916 yil 4 iyul Toshkentdan qaytgach, 5-iyul kuni tuman boshliqlarini rekvizitsiya qilish tartibi bo'yicha yig'ilishga chaqirishni buyurdi. Bugun kunning ikkinchi yarmida soat 15:00larda menga Xo'jand uyezd hokimidan quyidagi mazmundagi jo'natma keldi: Bugun sud ijrochilar ni idorasiga to'plangan katta olomon ishchi kuchi rekvizitsiyasidan norozilik bildirib, g'alg'ovur bo'lib politsiyachilarga hujum qilishdi. Dastlabki ishontirish ish bermadi, navbatchi bo'linmaning to'rtta quyi bo'linmasi o'z tashabbusi bilan politsiyaga yordamga keldi va mahalliy aholi ulardan birining qurolini olishga jur'at etgandan so'ng, o'q uzildi, shundan so'ng qolgan navbatchi bo'linmalar, ikkita yarador jamoa olomonga o'n beshta o'q uzdi: bir kishi halok bo'ldi. Olomon tarqaldi, tartibni saqlash uchun barcha choralar ko'rildi. Men prokurorga xabar berib, tergov o'tkazish va tegishli choralar ko'rish uchun yordamchimni yubordim Likoshim Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.S. Linkoshimning Turkiston o'lkasi general-gubernatorligiga telegrammasi № 375 Samarqand 1916-yil 7-iyul

Bugun Samarqand uyezdining Dag'bit qishlog'idan ishchilarni yollash bo'yicha olomon ko'tarildi. Ular bo'shliq ustasidan ro'yxatlarni olib, uni yaralashdi, kotibni o'ldirishdi. Tartibni saqlash uchun 50ta kazak bilan tuman boshlig'i yuborildi. Likoshin

Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.S. Likoshinning Turkiston o'lkasi general-gubernatorligiga telegrammasi №376 1916-yil 7-iyul Samarqand

Samarqand uyezdi boshlig'iga samarqandliklar Hisor, Shahrisabz va Afg'onistonga maktub jo'natgani haqida razvedka ma'lumoti keladi. Musulmonlar qo'zg'oloni shu yerda ko'tarilsa, u yerdan qo'llab-quvvatlanadimi, deb so'rashadi; bundan tashqari Turkistonning muhim shaharlariga qo'zg'olonga oydinlik kiritish maqsadida xatlar yuborilgan. Buxoroda isyonkor harakatlarga qarshi chora ko'rishni, shuningdek, maktublarni ko'rib chiqish va samarqandliklarning boshqa shaharlar bilan yozishmalarini nazorat qilishni so'rayman. Likoshin Siyosiy agentlikning Buxorodagi boshqaruvchisi N.A. Shulgining Turkiston general-gubernatoriga maxfiy telegrammasi. № 318 Yangi Buxoro 1916-yil 5-iyu

TOSHKENTGA TELEGRAF:

Buxoroga uchinchi kuniyoq kirib kelgan mahalliy mehnatkashlarning viloyatlaridan qora mehnatga ketishi haqidagi noaniq mish-mishlarni kecha Samarqanddan purkagichlar bilan kelgan mahalliy aholi ham tasdiqladi va ular e'lon qilgan e'lonlarni aytib berishdi. Samarqand va Buxorodan ham tashrif buyurgan mehmonlar ushbu e'lonlar asosida gap harbiy xizmatni joriy qilish haqida ketayotganiga qat'iy amin bo'ldik. Rus qo'shinlarining go'yoki yetarli emasligi, go'yo katta muvaffaqiyatsizliklar bo'lganligi, buning natijasida Turkiston aholisini bizning hukumatimiz tomonidan ba'zi bo'shliqlarga qo'shilishdan bosh tortganliklari uchun katta jarimlar chaqirish kerakligi haqida habarlar paydo bo'ldi.

Kecha mulla-bachchalarning ayrim guruhlari Rossiya Buxoroda ham askar olishni talab qiladi va nima qilish kerak urushda o'lishdan ko'ra, bu yerda o'lish



yaxshiroqdir. Samarqanddan ko'plab mahalliy yahudiylar kelib, agentlikka ko'ra harakat qilmoqda Afg'onistonga va yetakchilik kayfiyatini kuchaytiruvchi o'z hikoyalari haqida ma'lumot berilmogda. O'z navbatida Buxoro hukumatining Oliy qo'mondonligining asl ma'nosi Qo'shbegidan "bema'ni gap-so'zlarni bostirish choralarini ko'rishni so'radi, aholi punktlari politsiyasiga xabarlarini tarqatayotgan shaxslar ustidan nazoratni kuchaytirishni taklif qildi.

Afg'onistonda mintaqadan qochgan yahudiylarning paydo bo'lishidan qo'rqaman.

Ular tomonidan aqidaparast mish-mishlar yaratadi va tarqatadi va endi chekka biz uchun nomaqbul tashvish kayfiyati. Shulga Siyosiy agentlikning Buxorodagi menejeri N.A. Shulgining Tashqi ishlar vazirligining uchinchi siyosiy boshqarmasi menejeri V.O. fon Klemmga hisoboti № 336 O'ta maxfiy Yangi Buxoro 1916-yil 12-iyul

Hurmatli Vasiliy Oskarovich!

2-iyul kuni Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Turkiston o'lkasining tub aholisini shu yil 25-iyundagi Oliy qo'mondonlik qarori bilan haqiqiy urush davrida rekvizitsiyaga jalb etish masalasi bo'yicha yig'ilish o'tkazsin. Asosan Oliy vasiyatni bajarish tartibi muhokama qilinganda, buning Buxoro xonligining rus aholi punktlarida amalga oshirilishi haqida savol tug'ildi. Bu haqda so'rashganida, men xabar bermay qo'ymadim. Uning ko'rsatilgan aholi punktlarida tasodifan istiqomat qilayotgan rus fuqarolarining juda kam sonli chet elliklar yurishini yuqori baholadi va mening fikrimcha, xonlikning rus aholi punktlarida tashrif buyurishning iloji yo'qligini ko'rsatdi. Janobi Oliylari bunga to'liq rozi kelishilgan,

ayniqsa, eng ko'p taklif qilingan harbiy xizmatga chaqirish tartibi (viloyatlar o'rtasida chaqiriladigan odamlar soni bo'yicha konferensiya orqali, okruglar o'rtasida gubernatorlar va nihoyat, volostlar o'rtasida okrug boshliqlari) uyushgan mahalliy aholi mavjudligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, xonlikning rus aholi punktlari ma'muriyati faqat Rossiyaga a'zo bo'lgan muslimonlarning rus aholi punktlarida taxminiy yollashdan yashiringan ko'rinishini kuzatish haqida g'amxo'rlik qilishi mumkin.

Uchrashuv yakunida general-mayor Likoshin, uning fikricha, Buxoro amiri va Xiva xoniga biron bir ishchi otryadni jalb qilish va qora ishlariga yuborishni xohlaysizmi, degan taklifni berish zarurligi haqida savol berdi. Konferensianing ayrim a'zolarining fikricha, bu vassal hukmdorlarning bizga bo'lgan sadoqatining o'ta muhim yangi isboti bo'lar edi. Bu masala bo'yicha men yig'ilishda amir hazratlarining "har qanday chora bilan bizga yordam berishga tayyor ekaniga qat'iy ishonch hosil qilgan holda, haligacha ma'lum miqdordagi mablag'ni yetkazib berish masalasini ko'rib chiqishim haqida xabar bermadim. Buxoro hukumati tomonidan mehnatkashlar soni ma'lum darajada nomaqbuldir.

Birinchidan, xonlikda keng aholining yetishmasligi va paxta plantatsiyalarida ishchi kuchining nihoyatda kamligini, ayniqsa, qaysi ekinga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini hisobga olmaslik mumkin emasdek tuyuladi. Ichki ishlar vazirining Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan telegrammasida ko'rsatilgan, ikkinchidan, agar aholi o'z talabini bajarishdan bosh tortsa, yuzaga



kelishi mumkin bo'lgan o'ta xavfli vaziyatni hukumat yodda tutish kerak.

Umuman, yig'ilishning barcha hukmlarida, nazarimda, bu voqeanning siyosiy tomoniga, oliv irodani o'ta uzoqni ko'ra bilish zarurligiga nihoyatda kam e'tibor qaratildi. Darhaqiqat, Samarqand hokimi yig'ilishda shuni ma'lum qildiki, u allaqachon masjidlar eshiklariga chaqiruv tartibi va maqsadi haqida batafsil tushuntirishlar yozilgan maxsus e'lidlarni yopishtirib qo'yan, biroq bu e'lidlarni general-mayor Likoshin tomonidan tinchlik o'rnatishi kerak, deb hisoblangan.

Aholi tomonidan rasmiy harbiy xizmat sifatida tushunilgan, mahalliy aholini juda xavotirga solgan va ehtimol, ushbu yozishmalarda keltirilgan yozishmalarda eslatib o'tilgan to'qnashuvlar uchun bahona bo'lib xizmat qilgan. Shu yilning 5-iyulida №3319 raqamli maxfiy telegramma orqali xabar berish sharafiga tuyassar bo'lganman. Birinchi xabarni xonlik aholisi biroz xavotir bilan qabul qilgan bo'lsa-da, endi hamma g'iybatlardan so'ng, bu voqeа Buxoro aholisiga ta'sir ko'rsata olmaydi, degan xulosaga keldi. Garchi u yerdagi vaziyatni qizg'in muhokama qilishda davom etsa-da. Turkiston. hali ham butunlay xotirjam bo'lib qoladi. Har holda, general-mayor Likoshinning Buxoroda tinch amaliyotlar o'tkazilishi mumkinligi haqidagi xavotiri (nusxada

keltirilgan 376-sonli telegramma) asossiz va barcha ehtiyyot choralarini, faktlarning o'zi ko'rsatib turibdi, eng avvalo, mintaqaning mahalliy hududlari.

Xulosa o'rnida, Janobi Oliylariga shuni ma'lum qilishni o'z burchim, deb bilaman, agar Turkiston o'lkasida har qanday jiddiy asoratlar yuzaga kelgan taqdirda ham, yer so'rovida ham, yer so'rovida ham ehtiyyotkorona munosabatda bo'lsak, Buxoro xonligida to'liq xotirjamlikni saqlashga umid qilaman. Nazarimda Mahalliy aholi bilan bevosita bog'liq bo'lgan har qanday yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda hozirgi qushbegining ko'p yillik xizmati evaziga xonlikning turli joylarida bo'lgan mahalliy aholini a'lo darajada bilishi, ehtiyyotkorligi, unga nisbatan bizlarga shubhasiz xiyonat qilishi, shuningdek, Buxoroning oliv ma'muriyatidagi boshqalarning fidoyiligi shartlarga rioya qilgan holda xonlik osoyishtaligining to'liq kafolati. Boshqa tomondan, tinchlikni saqlash, Buxoro hukumati oldida ishchilarining ajralmas ta'minotini talab qilmaslik, hech bo'limganda amir hazratlari muolajalari chog'ida bunday talabni ba'zilar bilan almashtirib qo'yishni qat'iyroq deb bilgan bo'lardim. Mehnatkashlar do'stligini tashkil etishning bir turi, chuqur tuyg'u bilan yuksak hurmat va sodiqlik, sharafiga egaman.


References:

1. Беляев Алексей Константинович (1870–1960) – русский дипломат. В 1895 г. секретарь консульства в Ускюбе. В 1897 г. секретарь и драгоман генерального консульства в Эрзеруме. В 1899 г. вице-консул в Призрене. С 1906 г. – генеральный консул в Смирне, а затем в Салониках (1910 г.). В 1913–1916 гг. Российский Императорский политический агент в Бухаре.
2. Новая Бухара (Каган) – город на территории Бухарского эмирата, основанный в 1888 г. как русское поселение «Новая Бухара» (так город назывался до 1935) при Закаспийской железной дороге. В городе находилась железнодорожная станция



Бухара-1, обслуживающая город Бухару («Старую Бухару»), расположенная в 12 км от Кагана. В Кагане так же находилось Русское Императорское политическое агентство в Бухаре.

3. Рубах Н.Б. – полковник, начальник Ходжентского уезда, начальник Ходжентского гарнизона, председатель Особого уездного по воинской повинности присутствия Самаркандинской области.
4. Шульга Николай Андреевич (1883–?) – дипломат, направлен на службу в Бухару в 1909 г. С 1911 г. драгоман Политического агентства в Бухаре, с 1914 г. – первый драгоман, с 1916 г. – исполняющий обязанности первого секретаря посольства в Бухаре. С 21 мая 1916 г. временно управлял Русским Императорским политическим агентством в Бухаре. В октябре 1917 г. назначен секретарем Третьего политического (Среднеазиатского) отдела МИДа.
5. Ерофеев Михаил Романович (1857–1941) – генерал от инfanterии, в 1916 г. участвовал в подавлении восстания в Туркестане.
6. Восстание 1916 г. в Средней Азии: Сб. док. / Под ред. П.Г. Галузо. Ташкент, 1932. С. 73. Валиди приводит те же самые цифры: 14 пехотных батальонов, 33 кавалерийских батальона, 42 пушки, 6 единиц тяжелой артиллерии // Бөгөнгө Төркиле (Төркөстан) һәм яқын тарихы. Көнбайыш һәм Төңьяқ Төркөстан. 2-се өлөш / Эхмәтзәки Вәлиди Туған [башкортсаға тәрж. Э.М. Юлдашбаев, С. З. Эхмәзуллин, З.Ф. Кулберҙина]. Өфө, 2015. Б. 116.
7. Дякин В.С. Национальный вопрос во внутренней политике царизма (XIX – начало XX в.). С. 927. 40 АВПРИ. Ф. 147. Оп. 486. Д. 340. Л. 10.



PEDAGOGIK MULOQOT VOSITASIDA KASBIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI.

Kurbanova G.N.

BuxTI pedagogika, psixologiya va tillar
kafedrasi mudiri, p.f.d (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7064150>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2022

Accepted: 05th September 2022

Online: 09th September 2022

KEY WORDS

миллий мерос, маънавият, маданият, tafakkur, kasb, muloqot, bo'lajak o'qituvchi, rivojlanish, tarbiya, xususiyat, mezon, natija.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi.

Inson tafakkurining vujudga kelishi, fanlararo tadqiqot ma'lumotlari tasdiqlaganidek, quyidagi yo'nalishlardan: aniq-ta'sirli tafakkurdan konkret-obrazli tafakkur orqali og'zaki-mantiqiy tafakkur tomon borgan. Bizning uzoq ajdodlarimiz tafakkurining vujudga kelishi to'g'risida gapirganda shuni aytib o'tmoq zarurki, u hozirgi zamon odami tafakkuridan farq qilgan va hozirda mavjud bo'lmagan arxaik shakllarda amalga oshirilgan.

ABSTRACT

maqolada eng qadimgi ma'naviy-adabiy yodgorligimiz hisoblangan "Avesto" mazmunida ifodalangan ilmiy-irfoniy g'oyalarga tayangan holda, pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurni rivojlanterishning ijtimoiy-tarixiy asoslari yoritilgan.

Atrofdagi voqelikka mos va muvofiq bo'lgan, faol, ijtimoiy muhit maqsadga yo'naltirilgan amaliyot, hamda odamlarning bir-biri bilan muloqoti, aloqalari bizning uzoq o'tmishdagi ibtidoiy ajdodimizning aqli odamga aylanishiga yordam bergan ijtimoiy sharoitlardir. Agar bola vaziyat taqozosi bilan jamiyatdan tashqarida o'ssa, u aqli mavjudotga ham, ijtimoiy mavjudotga ham aylana olmaydi. Demak, fikrlash faoliyati asosida paydo bo'lgan va shakllangan inson ongi o'z shakli bo'yicha individual, lekin mohiyati bo'yicha ijtimoiy hodisadir.

Haqiqatdan ham buyuk tarixiy-ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan davlatchiligidimiz an'analarini davom ettirish, demokratik tamoyillarga asoslangan davlatni barpo etish jarayoni, jumladan jamiyat a'zolari hisoblanmish yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishlarida ajdodlar an'anasi va o'tmish qadriyatları muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi eng qadimiy va



noyob bilimlar xazinasi bo'lgan madaniy merosimiz «Avesto»da insoniyat taraqqiyoti, rivoji uchun zarur barcha ilmlar majmuasi, sohalar, qonun-qoidalar, axloqiy-ijtimoiy me'yorlar o'z aksini topgan. Shuningdek, asarda axloqiy barkamollik asosida, «komil inson»ni voyaga yetkazish yo'lida «ezgu fikr», «ezgu kalom», «ezgu amal» g'oyalarining zikr etilishi zardushtiylarning ma'naviy-ma'rifiy olami mohiyatini tashkil etadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra har bir mazdoparastning ruhan va xulqan komilligi, uning yaxshilikka yuz tutib, rost yo'lni tanlab, dunyoviy bilimlarni o'rganib, o'z kasbini e'zozlagan holda Ahuramazda farzlarini nechog'liq ado etishi bilan belgilangan. Zeroki, qo'sh haydab, don ekkan, chorvani parvarishlab, cho'lda bog' yaratgan, yerning zaxini qochirib, sho'rini yuvib ziroat ekkan zardushtiyning ravoni pok, xulqi xush, amali chin bo'ladi.

Biz ushbu maqolamizda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tafakkurini shakllantirishda "Avesto" matnlaridagi ustoz-shogird tizimi hamda ustozlarning burch va mas'uliyatlari haqidagi qarashlar mazmunini yoritishga harakat qildik.

"Avesto"dagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini poktiynat, halol, qalban sof, ma'nан yetuk zardushtiylarni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi tashkil qilib, bu masalani amalga oshirish esa ustoz va murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. «Avesto»da ustozlar haqida so'z ketganda eng avvalo barcha ustozlarning ustoz , mutlaq iloh Axura Mazda madh etiladi : «-sen ashah-Haqiqat so'zi va Ezgu niyat ta'limoti bilan, senga payvandlik va uns bog'lagan zotlarga ilk murabbiy, ustozsan», yoki «-sen haqiqatda, butun mavjudotga Ashah-Haqiqatning manfaati va durujning ziyonkorligi

xususida saboq bergansan, tarbiya qilgansan. Bulardan ko'rinish turibdiki Yazdon olamni, dunyodagi barcha bilimlarni yaratuvchi, Zardusht esa bu bilimlarni insonlarga yetkazib ularni ma'rifatli kelajakka hidoyat etuvchi hisoblanadi: «-Mazda ta'lim berdi va Zardusht xabar keltirdi», yoki «-Mazda ta'lim berib, Zardusht so'yagan radlarga olqishlar, xushnudlik va ofarinlar bo'lsin». [o'sha manba]

Gohlar va Yashtlarda Zardusht Yazdon ishini davom ettirguvchi, insonlarni halollikka, pok axloqqa, komillikka undaguvchi ustozlar rahnamosi sifatida ko'rsatiladi. O'z navbatida Zardusht ta'limotini kelajak avlodga yetkazish, dunyoga ezgulik nurlarini taratish, insoniyatni aniq axloqiy mezonlar asosida barkamollashtirish jamiyatdagi ustozlar va muallimlar zimmasiga yuklatilgan. Ustoz-muallimlar Yazdon farzlarini diliqa joy aylagan, o'z faoliyatida qo'llagan, vatanining gullab yashnashi, farovonligi yo'lida halol mehnat qilib, uni dushmanlardan himoya qila oladigan, jasur, pok, bilimdon shogirdlarni tarbiyalashlari shart bo'lgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan qabul qilingan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmunini har tomonlama intellektual rivojlangan, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil qilar ekan, ajdodlarimizning 3000-yil ilgari bu a'molga yetishning yo'llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyat tuzilishining negiziga asos qilib qo'yganlari tahsinga sazavordir: «-menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanaro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular



manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar»[o'sha manba] Muqaddas kitobda hayotning, taraqqiyotning asosida yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, haqiqat va yolg'on, go'zallik va xunuklik,adolat va nohaqlik kabi hamisha o'zaro kurashda bo'lgan, bir biriga zid tushunchalar va g'oyalarning kurashi talqin qilingan bo'lib, bularning mantiqiy rivoji sifatida yaxshi, dono ustoz va murabbiylar, nodon va johil ustoz, murabbiylarga qarshi qo'yib tasvirlangan. Bunda muallim va mudarrislar o'z ilmini qanchalik bilishi, kasbiga munosobati, fidoiyligi, o'z burchiga ma'suliyatiga qarab yaxshi va yomon ustozlarga ajratilgan. «-Ravshannazar ustoz tolibni ogoh etadi» ya'ni, yaxshi ustoz shogirdlarini tangrini tanimaslik, kufr, insofsizlik, g'arazgo'ylik, nohaqlik, ishyoqmaslik, axloqsizlik, hunarsizlik va bilimsizlik kabi illatlardan hazar qilishga undab, tangriga ishonib uni doim madh etish, haqgo'ylik, mehribonlik, poklik, hallollik, insof va diyonatlilik,adolatlilik, insonparvarlik kabi xislatlarni namoyon etishiga ko'mak berishni o'zining muqqadas burchi hisoblab, shu yo'lda xizmat qilgan. Ustoz haqida:«-haqiqat nurlari ostida komronlik va shodmonlik manziliga eltuvchidir, sen bu yo'lni ezgulikdan ogoh zotlar uchun bino aylading»[o'sha manba] deb kuylanishi tahsinga sazovordir.

Ayni vaqtida yodgorlikda imonini va ilmini dev va durujlarga sotgan yomon ustozlar qattiq tanqid ostiga olinib qoralanadi. «Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda, u odamlarni rostlikning bebahosarmoyasidan va ezgu niyatdan bahrasiz aylaydi», yoki «Ey, ilm olmoq niyatida

uzoq-yaqindan kelgan insonlar! Alhol barchangiz qulq solingiz, mening oshkora so'zlarimni tinglangiz va yodingizda mahkam saqlangiz: Yomon tarbiyachi hech qachon hayotingizni tubanlashtirmasin, devparast durvandlar avraguvchi til bilan sizlarni gumroh qilmasin». [o'sha manba] Yaxshilik, ezgulik (Axura Mazda) doimo yomonlik va johillik (Ahriman) ustidan g'alaba qozonganidek dono ustoz va murabbiylar ta'limoti yomon ustozlar ta'limidan ustun turishi, nihoyada ezgu amallarni o'z qalbi va ongiga jo aylagan tolib va shogirdlarning voyaga yetkazilishi bilan yakunlanishiga olib keladi.

Zardushtiylik dini e'tiqodiga asoslangan Sosoniylar sulolasining vakili Shahanshoh Xusrav II Parvez (591-628) hukmronligi davrida savol-javob tarzida bitilgan badiiy yodgorlikda keltirilgan fikrlar ham zardushtiylar ta'lim tizimida kasbiy tafakkurni rivojlantirish jarayonining mohiyatini ochishga yordam beradi.

У исталган синтактик бирлик кўринишида намоён бўлиши мумкин: бир содда ёки қўшма гап, уларнинг мураккаб кўринишлари ёки суперсинтактик бутунликдан иборат бўлади [2]. Айрим олимлар эса параграфни матн бирлиги сифатида тан олишади[3]. Бизнинг фикримизча, абзац ва суперфразавий бирлик ёки мураккаб синтактик бутунлик турли даражадаги бирликлардир.



Абзац атамаси, асосан, икки ўринда қўлланилади:

1. Абзац - босма ёки ёзма матнда хатнинг биринчи қаторидан (ёки сатр бошидан) жой ташлаб бошлаш. Адабиётда абзац матннинг сатр бошидан бошланиб, кейинги сатр бошигача давом этадган қисми[4].

2. Одатда, суперфразавий бирлик ёки унинг қисмини ўз ичига олган, оддий ёки қўшма гаплардан иборат бўлган бирликнинг ёзилган ёки босилган матнндан қўчириб олинган қисми[5].

“Абзац, – деб ёзади Л.М. Лосева, бу ёзма нутқнинг алоҳида бирлиги эмас, балки турли хил синтактик бирликлар томонидан ифодаланган матннинг бир қисмидир (мураккаб синтактик бутунлик, жумла ёки мураккаб синтактик бутунликларнинг бирикмаси).

Абзацнинг ажратилганлиги, авваламбор, абзацлар орасидаги матн бирлигининг бошланмасига урғу берилганлиги сабаблидир, бу жумлани хатбоши деб ҳисоблаш мумкин”[6]. У абзацларни ажратиб кўрсатишнинг асосий қоидаларини санаб ўтди. Шундай қилиб, унинг фикрига кўра, матнларни абзацларга ажратишда қуйидагиларга амал қилинади:

1. Бир шахс ёки предмет ҳақида маълумот берувчи ўзаро мазманий боғлиқ бўлган гаплар. Уларнинг шаклий белгиси бир хил отларнинг матннинг турли жойларида такрор қўлланишидир.

2. Аввалги абзацда айтилмаган янги маълумотларни ўз ичига олган гаплар. Бундай жумлаларда, одатда, олдинги абзацда ишлатилмаган сўзлар ва иборалар қўлланилади.

3. Худди шу шахс (лар) тўғрисида ва узоқроқ алоқа орқали боғланган такрорий маълумотларни ўз ичига олган гаплар. Уларнинг шаклий хусусияти номинатив ҳолатда бир хил отларни матннинг турли қисмларида такрорлашидир.

4. Олдинги абзацдаги сўнгги эгага тегишли бўлмаган кишилик, кўрсатиш ва бошқа олмошлар билан бошланадиган гаплар.

5. Маъносига кўра олдинги абзацга алоқадор бўлмаган гаплар
Н.А. Турмачева суперфразавий бирлик ва абзацларнинг моҳиятини ўрганиб чиқди ва матнни қисмларга ажратишнинг бу икки усулини таққослаб, 1970 йилда шундай ёзган эди: “...Суперфразавий бирлик, семантик ва грамматик бирлашма бўлиб, у семантик-синтактик категориядир ...”, “ажратилган абзац эса композицион ва экспрессив-стилистик вазифаларга кўра, стилистик категория, аниқроғи, стилистик-семантик категориядир”[7].

Бу фикр, назаримизда, масала моҳиятини аниқроқ ифодалайди.
Матн синтаксиси билан шуғулланган кўпчилик олимлар қатори, биз ҳам матннинг асосий бирлиги мураккаб синтактик бутунлик эканлигини эътироф этамиз.

Тилшунослар мураккаб синтактик бутунликни белгилаш учун бир қатор атамаларни қўллайдилар. Улар орасида мураккаб синтактик бутунлик (А. Пешковский), синтактик комплекс (А. Овсяникова), суперфразавий бирлик (О. Ахманова), матн таркибий қисми (И. Фигуровский) ва бошқаларни айтиб ўтиш мумкин. Бизнинг фикримизча, мураккаб синтактик бутунлик атамаси



ушбу лингвистик ҳодисанинг моҳиятини тўлиқ акс эттиради.

Тадқиқотчилар мураккаб синтактик бутунликни тўрт йўналишда ўрганадилар:

- 1) матн мазмунига кўра;
 - 2) матннинг қўлланишига кўра;
 - 3) матннинг қурилишига кўра;
 - 4) матннинг бажарган вазифасига кўра.
- Баъзи бир олимлар мураккаб синтактик бутунликни мазмун нуқтаи назардан кўриб чиқиб, матннинг изчиллигини мантиқий мувофиқлиги билан тенглаштирадилар. Бундай тенглаштиришни тўғри деб бўлмайди. Аммо, маълумки, “матннинг мантиқий уйғуналиги умумий матннинг уйғуналиги билан бир хил эмас, чунки матн мантиқий жиҳатдан қарама-қаршиликларни, номувофиқликларни, узилишларни ва бошқаларни ўзида ифодалashi мумкин, бу мантиқий бирлик учун ноқонунийдир”[8].

Матн прагматика нуқтаи назаридан энг кам ўрганилган соҳалардан биридир. И. Галпериннинг сўзларига кўра, бу борада мураккаб синтактик бутунликни ўрганиш, матн қисмларининг кетма-кетлигини аниқлаш, яъни матнларнинг юзага келиш механизмини аниқлаш жуда муҳимдир.

Матнларни амалий нуқтаи назаридан ўрганишда анча ютуқларга эришилган. Бунда таҳлил қилишининг икки йўналиши ажратиб туради:

- 1) мустақил гапларни мураккаб бирликларга бирлаштириш усулларини ўрганиш орқали жумладан каттароқ бирликларни ажратиш ва ўрганиш;
- 2) матн қисмларини боғловчи воситаларни ўрганиш.

Мустақил гапларни ўзидан каттароқ бўлган бирликларга бирлаштириш

усулларини ўрганишга Г.Я. Солганик асарларини мисол қилиб келтириш мумкин[9]. Муаллиф гапларнинг бирлашиш усулларини ўрганар экан, гаплардан каттароқ бўлган бирликларни мураккаб синтактик бутунлик ёки “насрий бандлар” каби таснифлайди. Мустақил гаплар ўртасидаги алоқанинг асосий усули, унинг таркибий бирликлари ҳақида гапирганда, Г. Солганик мураккаб синтактик бутунликнинг иккита таркибий турини ажратиб кўрсатади:
а) гаплар бир-бири билан кетма-кет боғланганда, мустақил гаплар орасидаги занжирили насрий бандлар;
б) гаплар мазмуни бир-бири билан таққосланганда параллел равища боғланган насрий бандлар.

Насрий бандларнинг тузилишини аниқлашда иккита усулни фарқлаш таклиф этилади:

- а) банднинг ички таркибий тузилишини очиб берадиган ва гапларни бирлаштиришнинг синтактик воситаларини аниқловчи синтактик усул;
- б) банднинг ташқи қўринишини, банднинг чегарасинини, тафаккур ривожланишининг хусусиятини, мавзуларини белгиловчи композицион-тематик усул.

Мураккаб синтактик бутунликнинг қандай амал қилишини ўрганиш масаласи кўпчиликнинг эътиборини тортган. Лекин матнни бу тарзда таҳлил қилиш, асосан, бадиий адабиёт тили ва услуби тадқиқидагина кўзга ташланади. Мураккаб синтактик бутунлик таркибий қисмларининг ўзаро боғлиқлигига асосланиб, Н.А. Турмачева мураккаб синтактик бутунлик таркибидаги грамматик боғлиқликнинг



бешта асосий турини ажратиб кўрсатади[10]:

- 1) занжирли боғланиш;
- 2) параллел боғланиш;
- 3) сафли боғланиш;
- 4) боғловчилар орқали боғланиш;
- 5) вазиятли боғланиш.

Турли хил мураккаб синтактик бутунликнинг мавжудлиги иккита асосий омил билан белгиланади: бири, мураккаб синтактик бутунликни ташкил этадиган гапларнинг турлари ва иккинчиси, улар ўртасидаги муносабатларнинг хусусиятлари. Бу икки омил функционал услугга, матн турига ва муаллифнинг индивидуал услугига боғлиқ. Матн семантик – синтактик-стилистик бутунлик бўлиб, ўзига хос мураккаб структурага эга. Матн таркибиغا кирувчи компонентлар – бирликлар қуйидагилар:

- а) гап – содда ёки қўшма гаплар, уларнинг мураккаблашган кўринишлари;
- б) суперсинтактик бутунликлар;
- с) период – “зийнатли нутқ”. (Аристотель)[11].

Матн компонентларнинг ҳар бир мустақил кўриниши (масалан, период ёки суперсинтактик бутунлик) алоҳида текшириш объекти ҳисобланади[12].

Матннинг асосий таркибий қисми, бирлиги бўлган мураккаб синтактик бутунликни ажратиш ҳар доим ҳам осон кечавермайди. Баъзи ҳолларда, у абзатга тўғри келса, бошқа ҳолларда, битта абзац осонгина бир нечта мураккаб синтактик бутунларга бўлиниши мумкин. Хабарнинг мазмунига ва айниқса, прагматик муносабатга қараб, мураккаб синтактик бутунлик ва абзац чегаралари, қўпинча, бир-бирига мос келади. Шунга қарамай,

мураккаб синтактик бутунликни матннинг таркибий қисми, гапни эса мураккаб синтактик бутуннинг таркибий қисми сифатида баҳолаш лозим.

Л.М.Лосева мураккаб синтактик бутунликнинг қуйидаги характерли хусусиятларини ажратиб кўрсатади:

1. Мураккаб синтактик бутунлик (МСБ) матн таркибидаги энг катта синтактик бирлиkdir.
2. Мураккаб синтактик бутунлик – бу мавзу жиҳатидан, шунингдек лексик, грамматик ва оҳанг жиҳатдан бирлаштирилган мустақил гаплар гуруҳидир.
3. Мураккаб синтактик бутунлик тасвиrlанаётган ҳодисанинг бирон-бир томонини қамраб олади.
4. Мураккаб синтактик бутунлик таркибидаги жумлалар орасидаги алоқа бевосита ёки билвосита бўлиши мумкин. Санаб ўтилган хусусиятлар асосида у умумий тарзда мураккаб синтактик бутунликка таъриф беради. “Мураккаб синтактик бутунлик, – деб ёзади у, бу матннинг энг кенгайтирилган синтактик бирлиkdir, бу тасвиrlанаётган мавзунинг у ёки бу жиҳатларини тавсифловчи бир-бири билан узвий боғлиқ ҳамда ўзаро алоқада бўлган гаплар гуруҳидир”[13].
- Г.Я. Солганикнинг сўзларига кўра, “насрий банд (бизнинг фикримизча, мураккаб синтактик бутунлик – муаллиф томонидан) – бу алоҳида гаплар билан таққослаганда, фикрнинг янада тўлиқ ривожланишини ифодаловчи маъно ва синтактик жиҳатдан бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган жумлалар гуруҳидир”[14].



К.Н.Велиев (Боку) қүйидагиларни мураккаб синтактик бутунликнинг белгилари деб кўрсатади:

- 1) мазмун, маъно яхлитлигининг(аниқлик) бирлиги;
- 2) қисмларнинг ўзаро боғлиқлигига намоён бўладиган алоқа усуллари;
- 3) таркибий туташганлик;
- 4) мураккаб гаплар билан таққослаганда алоқа усулларининг чуқурлиги, кўп қирралилиги;
- 5) матн таркибидаги грамматик ва лексик бирликларнинг нисбий мустақиллиги;
- 6) калит сўзлар, жумлалар мавжудлиги, уларни олмош, шунингдек, синонимлар билан алмаштириш имкониятининг мавжудлиги[15].

Матн ва унинг бирлиги саналмиш мураккаб синтактик бутунликнинг лингвистик тадқиқи мураккаб жараёндир. МСБнинг белгилари бутун матн ёки матндан олинган муайян парча доирасида аниқроқ намоён бўлади.

Мисолларга мурожаат қиласи:

Дуоибад қилмоқ, яъни бандага Аллоҳдан ёмонлик тиламоқ мусулмон фарзандига хос эмас. Баъзан қарғишларни эшишиб қоламиш: банда кўзларининг кўр ёки оёқ қўлларининг шол бўлиб қолиши сўралади Аллоҳдан. Бу каби қарғишларда икки хил нодонлик мавжуд: агар банда айбор бўлса унга қандай жазо беришни Яратганинг ўзи билади. Жазо тури банда томонидан белгиланмайди. Фараз қиласи-ки, қарғиш тегиб, ўша одам кўр бўлди. Хўш, бундан дуоибад қилган одамга бирон наф борми? Фақат кўнгил қувончи бор. Бу кўнгил қувончининг эгаси эса иблисдир.

Баъзилар ўзлари ёмон деб фараз қилувчи кишиларнинг ўлимини ҳам истайдилар. Аввало, ўлим дуо билан бўлмайди. Бу тақдир ёзуғидир. Хўш, ўша одам дунёни тарк этса дуоибад қилғувчининг ҳаёти чиройлироқ бўлиб қоладими?

Ёмон ниятли дуодан кўра хайрли – яхши дуо қилмоқлик одам фарзанди учун фойдалироқ эмасми? Ёмон деб ўйлаганимиз одамга Аллоҳ инсоф, ҳидоят сўрасак-да, дуоларимиз ижобат бўлиб у киши яхшилик йўлига ўтса, фақат бизга эмас, жамиятга фойда-ку!

Дуоибад учун савоб йўқ. Аллоҳ яратган бандаларининг бир-бирларига яхшилик қилишини истайди ва шу мақсаддаги хайрли дуолар ажр беради. Яхши мукофотдан юз ўгириш нодонликдир.

Бу масалада яна бир мулоҳазам бор: кимнингдир кўр ёки шол бўлишини ёки тезроқ ўлишини истовчи банданинг дили қандай экан? Кир ва қора эмасмикин? У ҳолда бошқа бир дили қора уни дуоибад қилиб ўтирганмикин?[16] (Т.Малик)

Таҳлил қилинаётган парча бешта мураккаб синтактик бутунликни ўз ичига олади. Уларнинг ҳар бири ўз микромавзусига эга. Биринчи мураккаб синтактик бутунлик дуоибад қилмоқ ҳақида, иккинчиси – бирорга ўлим истамоқ ҳақида ҳикоя қиласи, учинчиси – яхши дуо қилмоқлик ҳақидадир. Юқоридаги учта мураккаб синтактик бутунлик тўртинчи – дуобибад учун савобнинг йўқлиги ва бешинчи – дили қоралик ҳақидаги мавзуга ўтиш воситаси бўлиб хизмат қиласи. Ҳамда ушбу микроматнлар ўзига хос яхлитлик касб этади.

Ҳар бир мураккаб синтактик бутунлик – бу ибтидо ва интиҳосига эга бўлган



кичик бир ҳикоя каби таассурот қолдиради.

Шундай қилиб, мураккаб синтактик бутунликлар ўртасидаги чегараларни белгилашда жумлаларнинг мазманий ва шаклий (лексик ва грамматик) хусусиятлари ҳисобга олинади. Оҳанг, шунингдек, олдинги жумланинг кейингисига мазмун жиҳатдан тобелиги, битта мураккаб синтактик бутунликни бошқасидан ажратишга ёрдам беради.

Агар мазманий тобелик бўлмаса, унда микромавзу тугайди, у ҳолда янги мураккаб синтактик бутунлик бошланади, шу билан бирга мураккаб синтактик бутунликни шакллантирган гаплар билан кейинги МСБ жумлалари ўртасида параллел боғлиқлик мавжуд бўлган ҳоллар бундан мустасно, албатта.

Бошқа мисолни олайлик.

Бир вақтлар Зарафшон боғида боғбон бўлган Муборизхон (аввалги Афзалбек) Ақбар ва Пирмуҳаммаднинг гапларини Байрамхонга етказиб юриб унинг яқин одамига айланган эди.

Бироқ Байрамхон енгилиб, Ақбарга энг яқин одам – Адҳамхон ва унинг онаси Моҳим энага ўлиб қолганини кўрган Муборизхон, ҳамон Байрамхоннинг хизматида юрган бўлса ҳам, энди унинг ички сирларини Адҳамхонга етказиб турди ва унинг содиқ хуфиясига айланди.

Адҳамхон келажакда Байрамхон каби вакили салтанат бўлиш орзусида эди. Бунинг учун аввал Байрамхонни, ундан сўнг Мунимхонни йўқ қилиш фикрига тушган. Муборизхон шу режаларни

амалга оширишда унга астойдил хизмат қилса Адҳамхон уни ҳалигача ушалмай келаётган орзуларига етказиши, катта амал ва мулк инъом этиши мумкин.

Муборизхон Байрамхоннинг энг ишончли хизматкорлари қаторида сафарга бирга чиқди. Адҳамхон унга Аҳмадободдан наридаги Патан шаҳрининг қутволи Мусахон Пўлодий билан яширин алоқа боғлашни буорди. Патан Гужарат подшосига қарап, бу ерда Ақбарнинг ҳукми ўтмас эди. Адҳамнинг ошнаси Мусахон эса Аграда Байрамхон билан чиқишилмай, порахўрликда айбланиб, тўрт йил бурун Патанга кетиб қолган, аммо Адҳамхон билан ҳалигача мактуб ёзишиб турар эди. Энди Адҳамхон билан Пирмуҳаммад атка Байрамхонни Патанда ўлдириш режасини шу Мусахон билан тил бириктириб туздилар. Муборизхон икки орада маҳфий воситачи вазифасини ўтади[17]. (П.Қодиров)


Хуласа

Таҳлил қилинаётган парча битта мураккаб синтактик бутунлиқдан иборат бўлиб, унинг таркибидағи бирликларни Муборизхон исмининг такорири ва ушбу шахснинг хусусиятларини акс эттирувчи сўзлар бирлаштиради. Парча ўз микромавзусига эга. Мураккаб синтактик бутунликларни ажратища биз жумлаларнинг мазманий ва шаклий хусусиятларига таяниб иш кўрдик. Мураккаб синтактик бутунликнинг чегаралари аксарият ҳолларда матннинг бошланмаси мазмунида ва синтактик тузилишида белгилаб берилади.

References:



1. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. Издание 6-е. М.: Учебно-педагогическое издательство. – 1938. – Т. С. 457.
2. Мамажонов А., Абдуллатоев М. Ўзбек матнинг семантиқ, синтактик ва стилистик аспекти. – Фарғона: 2021. –Б.10
3. Сильман Т. И. Проблемы синтаксической стилистики:(на материале немецкой прозы). – Просвещение. Ленингр. отд-ние, 1967. Фридман Л. Г. К вопросу о сверхфразовых единствах. Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. – Л. 1975. –С. 220-226. Каримова Р. А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов).–Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Башкирский государственный университет, 1991.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2014, –Б. 51.
5. Розенталь Т. Розенталь ДЭ, Теленкова МА Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение. 1976.
6. Лосева Л.М. Как строится текст. – М., 1980. –С.85.
7. Турмачева Н.А. К вопросу о природе сложного синтаксического целого и абзаца. Синтагматика, парадигматика и их взаимоотношения. – Рига, 1970.
8. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М., 1981.
9. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М., 1973. –С.86.
10. Турмачева Н.А. К вопросу о природе сложного синтаксического целого и абзаца. Синтагматика, парадигматика и их взаимоотношения. – Рига, 1970.
11. Античные теории языка и стиля. Соц. Экгиз. М., - Л., 1936. -С. 183.
12. Мамажонов А., Абдуллатоев М. Ўзбек матнинг семантиқ, синтактик ва стилистик аспекти. Фарғона – 2021. –Б.15
13. Лосева Л.М. Как строится текст. – М., 1989. 94 с
14. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М., 1973. –С.95.
15. Велиев К.Н. Сложное синтаксическое целое и его поэтические конституенты в эпическом тексте.// Советская тюркология, 1990. № 6. –С.17-30.
16. Тоҳир Малик. Меҳмон туйғулар. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2018.
17. –Б. 451-бет
18. Қодиров П. Авлодлар давони (Тарихий роман). – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. –Б. 365.



XALQ OG'ZAKI IJODIYOTI KELAJAK AVLOD TAFAKKURI SHAKLLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA

Qurbanova Feruza Maxamatjon qizi

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7103332>

ARTICLE INFO

Received: 16th September 2022

Accepted: 18TH September 2022

Online: 22nd September 2022

KEY WORDS

milliylik, ertak, maqol, topishmoq, masal, tez aytish, tarbiya, xalq og'zaki ijodi, tafakkur, janr.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi orqali milliy ruhda tarbiyalash xususida so'z yuritiladi. Boshlang'ich sinfda o'qish darsliklaridagi xalq og'zaki ijodi janrlarini mohiyatini o'rganish. Boshlang'ich sinf o'qish darsligida berilgan ertak, maqol, topishmoq, masal kabi janrlarni milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashgan holda o'rganish. Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash, insoniy fazilatlarni singdirish, va tafakkurini shakllantirish.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikr va mulohazalar ham bevosita ta'lif tizimiga taalluqlidir: «Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi». [1] Kelajak vorislarini komil inson qilib tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati juda katta.

Darhaqiqat, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek bolalalarni o'qitishda ularning ta'lif va tarbiyasiga katta e'tibor berish lozim. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir. Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon shakllanib kelmoqda, ushbu atama "og'zaki adabiyot", "og'zaki ijod", "xalq og'zaki poetik ijodi" degan

nomlar bilan ham yuritilgan. Xalq og'zaki ijodi kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning xulqatvorlariga, muomala madaniyatiga, kattalarni hurmat munosabatida bo'lishni va kichik yoshdagi o'quvchilarning insoniy fazilatlarini shakllantirib, yetuk barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim ro'l o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodi orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan madaniy vaq ma'rifiy boyliklarimiz yosh avlodga singdirishimiz, ular qalbida insoniylik ajdodlarga faxr-iftixor tuyg'usini shakllantirish hamda qalbida ularga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish zarur.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish shunchaki badiiyatni o'rganish emas, balki ulardag'i vatanparvarlik, qahramonlik insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va hunarga kuchli e'tibor, to'g'rilik va rostgo'ylik kabi jahon xalqlariga, barcha



pokdil, chin insonlarga ma'qul bo'ladigan g'oyalarni o'rganish demakdir.

Har bir maqol, matal, ertak, rivoyat, qo'shiq, doston va boshqalar xaq qalbiga yaqin, aslida ulardan yuzaga kelgan orzu - armonlar, intilishlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, ertak va dostonlarning qahramonlari xalq tasavvurida barkamol insonlardir. Ularning maqsadlari bilan xalqning maqsadi uyg'undir. Xalq hamma vaqt tinch va osoyishta, go'zal va farovon, to'kin - sochin va obod mamlakatni orzu qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida yaratilgan asarlar xalqning ijtimoiy-siyosiy ideallari, bu ideallarni gavdalantiruvchi, o'sha davrga xos fazilatlar egasi bo'lgan qahramonlarini bunyodga keltirgan asarlardir. Ularning ahamiyati bugungi kunimiz uchun va hamma zamonlar uchun ham bir xildir. Chunki ularda umuminsoniy manfaatlar himoya qilinadi, ezguliklar targ'ib qilinadi.

Farzand tarbiyasi haqida sharq alomalarining muhim fikrlari.

Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi.

Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Yusuf Xos Xojib har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish shunchaki badiiyatni o'rganish emas, balki ulardagi vatanparvarlik, qahramonlik insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va hunarga kuchli e'tibor, to'g'rilik va rostgo'ylik kabi jahon xalqlariga, barcha pokdil, chin insonlarga ma'qul bo'ladigan g'oyalarni o'rganish demakdir.

Har bir maqol, matal, ertak, rivoyat, qo'shiq, doston va boshqalar xaq qalbiga yaqin, aslida ulardan yuzaga kelgan orzu - armonlar, intilishlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, ertak va dostonlarning qahramonlari xalq tasavvurida barkamol insonlardir. Ularning maqsadlari bilan xalqning maqsadi uyg'undir. Xalq hamma vaqt tinch va osoyishta, go'zal va farovon, to'kin - sochin va obod mamlakatni orzu qiladi.

Chinakam insonga xos bo'limgan xususiyatlar qoralanadi. Xalqimizning qadimiy va asrlar osha bizgacha etib kelgan og'zaki ijod namunalari milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagidir. Qadim zamonlardanoq Turon, Turkiston xalqi o'zining ko'hna tarixi, boy og'zaki ijodi, yozma yodgorliklari, urf - odat va an'analari bilan ajralib turgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida ta'lim - tarbiya bolalar ongiga milliy tarbiya an'analarini singdirish, ularni ota - bobolarimiz tajribalaridan bahramand



etishi bilan muhimdir. Zero, yosh avlodni komil inson qilib yetishtirishga ongiga bolalikdan boshlab insoniylik, mehr - oqibat, vatanga sadoqat hislatlarini singdirib borish lozim.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida eng go'zal insoniy fazilatlardan biri sifatida kamtarlik deb ko'rsatiladi.

Kamtarlik kishining o'ziga talabchanligi, o'z xatti-harakatlariiga, bilimiga tanqidiy qarashi, o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho bermasligi demakdir.

Bu fazilat kishilarga bo'lgan munosabatga yorqin nomoyon bo'ladi. Inson qanchalik xushxulq bo'lsa, u kishilar bilan shunchalik serlutf, kamtarona, oddiy muomalada bo'ladi, jamiyatda mavjud bo'lgan qoidalariiga hurmat bilan qaraydi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflatun takidlagandek "Bola tarbiyasi jarayonidagi barcha zarur ishlarni ta'lim bilan birga olib boorish lozim". G'arb faylasuflari farzand tarbiyasini jamiyat maanfaatlari bilan bog'liq deb hisoblaganlar, lekin sharqda mutafakkirlar bola tarbiyasi bilan asosan ota-onas, maktab va jamoa hamkorlikda shug'ullanishi kerak degan xulosaga kelgan. Tarbiya haqida gap ketar ekan xalq og'zaki ijodning yorqin namunalari bolalarning yetuk barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodining eng muhim fiklaridan biri sifatida folkloarning og'zaki yaratilish shakli ham hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ularning ongiga ,bolalar ruhiga , tabiatiga ta'siri, ko'pincha uning og'zaki ijodi orqali belgilanadi. Xalq og'zaki ijodi bu so'z san'atidir, jumladan xalq og'zaki ijodi qo'shiq, ertak, doston, maqol, topishmoq, masal, matal, afsona, latifa, lof, askiya, rivoyat, hikmat kabi janrlarni o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodining tarkibiy

qismi sifatida "Bolalar folklori" atamasi ham mavjud.

Bola qiziquvchanligi doimo o'rab turgan atrofimizdagi olamni va dunyo tuzilishini bilishga yo'naltirilgandir. Bola o'ynab turib, tajribasida sabab-oqibat va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga harakat qiladi. Masalan. uning o'zi qanday predmetlar cho'kishini, qanday predmetlar suzishini fahmlashi mumkin. Bolaning aqliy munosobatlari qanchalik faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savollar beradi va bu savollar turlicha bo'lib boradi. Bola dunyodagi barcha narsalar bilan qiziqishi mumkin: okeanning chuqurligi qancha? Hayvonlar qanday nafas oladi? Nima uchun tog'larning tepasida qor saqlanadiyu pastda erib ketadi?

Bola har doim bilishga intiladi, bilimlarni o'zlashtirish esa ko'p sondagi "nimaga?", "qanday, "qanday qilib", "nima uchun" kabi savollarga javob olishi orqali amalga oshadi.

O'zida bor bilimlaridan foydalanishga majbur holda, holatni tasavvur qiladi va savolga javob topish uchun mumkin bo'lgan yo'lni topishga harakat qiladi. Bola haqiqiy holatni tasavvur qilib, o'z xayolida unda harakatlanadi. Ichki obrazli harakatlar natijasida masalani yechimini amalga oshish tafakkuri ko'rgazmali-obrazli deb ataladi. Obrazli tafakkur - kichik maktab yoshida tafakkurning asosiy ko'rinishidir. Albatta, boshlang'ich ta'lim yoshida bola mantiqiy fikrlaydi, lekin bu yoshda ular ko'pincha ko'rgazmalilikka tayanadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlarimiz ,ko'p asrlik an'analarimiz, urf-odatlarimiz, xalqimizning ijtimoiymadaniy kelib chiqish tarixini uqtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida



ona tili va o'qish savodxonligi kitoblarida xalq og'zaki ijodi uchun alohida boblar tashkil etilgan, bu o'quvchilarning xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishishning imkonini beradi. Misol tariqasida to'rtinchisinf o'qish kitobi misolida ko'rishimiz mumkin. Bunda albatta xalq og'zaki ijodining janrlari bolalarga xos tarzda keltirilgan. "Xalq og'zaki ijodi" ning o'zi alohida bitta bo'lim sifatida berilgan unda qo'shiqlar, alla, ertak kabi janrlari berilgan. Xalq og'zaki ijodining yorqin namunalaridan bo'lган maqol, topishmoq, tez aytish kabi janrlar aynan bu boblarda emas, balki boshqa bir boblarda matn yoxud she'rdan keyin oxirida beriladi o'sha mavuga mos tarzda berilib o'tadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarinig milliy ruh asosida tarbiyalanishida maqollarning ahamiyati beqiyosdir. Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan kuzatishlari asosida yuzaga kelgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqollarni o'quvchilarga o'rgatish bilan bir qatorda ular ongida maqollarning turli xil insoniy hislatlarini tasavvur qilishini shakllantiradib beradi. "Maqollar" mavzusini olsa, avvalo, o'quvchilarda maqol nimaligi tushuntiriladi "Kitobdan yaxshi do'st yo'q" ushbu maqol orqali judayam ko'plab fikrlarni keltirish mumkin. Kitobning beminnat bilim berishi unda qanchadan qancha sir-asrorlar yashiringanini tushuntirish lozim. U bilan yaqindan do'st bo'lish ko'p narsani o'rganish lozim, bu o'quvchilarga ta'limiy bilim bo'lsa endi uning tarbiyaviy ahamiyati ham tushintiriladi, ya'ni kitobga yozmaslik, uni buklamasdan, yirtmasdan tutish lozimligi aytib o'tilgadi. "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan har qanday ertak zamirida o'quvchilarni ma'naviy

yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shunday g'oyani ilg'agan tarzda o'z dasturini uyuştirsa va o'tkazsa o'z pedagogik vazifasini ado etgan bo'ladi. Zero, ertakni o'qitishdan ham maqsad shu bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi. Misol tariqasida o'qitilayotgan matn va uni o'rgatish metodlari bolaning qabul qilish qobiliyatini tabiat va jamiyat orasidagi tafovutlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantiradi. Bularning hammasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi materiallarinig o'rni juda katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligida bilamizki xalq og'zaki ijodining eng sara janrlaridan ertak, masal, hikoya janrlari keng qamrovli hisoblanadi. O'quvchilar "O'qish kitobi" darsligida berilgan xalq og'zaki ijodiga mansub materiallarni o'qish vaqtida o'zbek xalqining bitmas-tugamas ma'naviyati va madaniyatidan bahramand bo'ladilar. O'quvchilar o'zlari uchun sevimli bo'lib qolgan ertaklari yoki boshqa janrdagi asarlarni o'qish davomida o'sha voqealarni o'z hayolotida tasavvur qiladi va o'sha olamga kirib ketadi. Asardagi qahramonlar qatori mard, jasur, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo'lismeni xohlaydilar va o'shanday bo'lishga harakat qiladilar. O'quvchilar dastlab og'zaki ijodning eng keng tarqalgan janri bo'lmish ertak bilan tanishadilar. "Xalq og'zaki ijodida ertak janrinig bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishning sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, manodorligi va xalq tiliga yaqinligidir" [2]. Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qitish orqali o'quvchilarning umumiyligi kamolotiga, bir-biriga bo'lgan



hurmatini, do'stlik qadriyatlarini, halollik, rostgo'ylik kabi tuyg'ularni ham shakllantirib beradi [3]. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida xalq og'zaki ijodining mazmun mohiyatini ochib berishda quyidagicha struktura tuzish mumkin: xalq og'zaki ijodini o'rgatish orqali o'quvchilarning ma'naviy barkamol • shaxs, vatanparvar, botir, qo'rmas bo'lib tarbiyalanishida maqollardan foydalana olish; o'quvchilarni zukko, topqir, ziyrak bo'lib yetishishida topishmoqlarni • qo'llay olish usullari; o'quvchilarning sadoqatli, kamtar, ziyrak inson bo'lib shakllanishda • masallardan foydalana olish masalasini ochib berish; Hozirgi zamon o'zbek

adabiyotida asar qahramonlarining qalb kechinmalari to'laroq ifodalanayotganligi, psixologik asarlarning ko'plab yaratilganligi badiiy tasvir vositalarining biri hisoblangan o'ziniki bo'limgan ko'chma gapni ustalik bilan qo'llash natijasidir [4].

Xulosa: qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi orqali milliy ruhda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni ,ma'naviy me'rosimizni o'quvchilarga xalq og'zaki ijodidagi janrlar orqali tushintirib berish lozim.Boshlang'ich sinf o'qish darslariga qo'yiladigan talablarimizdan eng muhimi bu o'quvchilarni ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashdan iborat.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 13-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz" B 14 "O'zbekiston" Toshkent 2016.
3. Matchanov.S, Bakiyeva.H, G'ulomova.X, Yo'ldoshev.Sh, Xolboyeva.G "Ona tili va uni o'qitish metodikasi " darslik "Ishonchli hamkor " Toshkent " 2021"
4. Fuzailov.S, Xudoyberanova.M, Yo'ldosheva.Sh, 3-sinf "O'qish kitobi " darsligi B 36-42 "O'qituvchi " Toshkent 2018
5. Siddiqova Sh. "Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari:muammo va yechimlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. "Jizzax" 2020. 17.04



MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

O'QISH SAVODXONLIGI DARSALARIDA BERILAYOTGAN ASAR		
1.	MUALLIFLARINI O'RGANISH VA O'QITISH	4
Zulfiyaxon To'ychiyeva Abdulxamid qizi		
1916-YILGI TURKISTON O'LKASIDAGI BOSHLANGAN XALQ		
2.	HARAKATLARIDAGI TELEGRAMMA YOZISHLAMARINING BOSHLANISHI	7
SHAXZODXO'JA ABDURAZZAQOV		
PEDAGOGIK MULOQOT VOSITASIDA KASBIY TAFAKKURNI		
3.	RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI.	12
Kurbanova G.N.		
TARIX VA TARBIYA DARSALARINING BUGUNGI KUNDAGI		
4.	INNOVATSION USULDAGI O'QITILISH TIZIMI	17
Abdusamatova Dildora O'ralboyevna, Axrorova Dilfuza Qodirovna		
COMPARATIVE ANALYSIS ON THE CHARACTERS DEVELOPMENT IN "BUD		
5.	NOT BUDDY" AND "A BOY WITH FIVE CHILDREN"	21
Kodirjonova Ikbola		
ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИДА МУРАККАБ СИНТАКТИК		
6.	БУТУНЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	27
Аманов Абдижаббор Саттарович		
XALQ OG'ZAKI IJODIYOTI KELAJAK AVLOD TAFAKKURI		
7.	SHAKLLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA	34
Qurbanova Feruza Maxamatjon qizi		